



Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Jamoat salomatligi va umumiy gigiyena” kafedrası mudiri, Ibadulla Qochkarovich Abdullayevning 70 yilligiga bag‘ishlangan “Sog‘liqni saqlash tizimida menejmentning zamonaviy muammolari va istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2025-yil 20-21 oktabr

Maktab yoshidagi bolalarning turmushdagi jarohatlanishni o‘ziga xos gigiyenik xususiyatlari
Omanova A.S., Egamberganova Z.O.

TTA Urganch filiali

Bolalar orasida jarohatlanish, ayniqsa turmushdagi jarohatlanish keyingi yillarda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida, jumladan mamlakatimizda ham uning tarqalganlik darajasi yuqoriligicha saqlanib qolmoqda va ayrim davlatlarda o‘shir xususiyatiga ega bo‘lib, har qanday jamiyatda katta sanitariya-gigiyenik, tibbiy-demografik, tibbiy-ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Jarohat -bu odatda qisqa muddatli jismoniy ta’sir natijasida tirik organizmda to‘qimalarning anatomik (sitologik va molekulyar) butunligining buzilishi bilan kechuvchi jarayondir. O‘rganilgan adabiyotlardan olingan ma’lumotlarga qaraganda V.O Shepin, Ye.V Shishkinlarning ilmiy xulosalarida Rossiyada yiliga 12 ming jarohatlanish va zaharlanishlar ro‘yhatga olingan bo‘lsa, uning 93%ini aynan jarohatlanishlar tashkil etadi. Bu degan har 1000 aholiga 120-130 jarohatlanish to‘g‘ri keladi degani. Bolalarda bu ko‘rsatkich 100-110 ta, o‘spirinlar orasida 160-170 taga teng. Kryuk Viktoriyaning (2021) ilmiy xulosalariga qaraganda Rossiyada oilaviy-turmush sharoitida yuzaga kelayotgan zo‘ravonliklar sababli oilalarda bolalarning jarohat olish holatlari yil sayin oshib borayotganligi ta’kidlanadi. Bu ko‘rsatkich 2018 yilga nisbatan 2019 yilda -3,4% ga oshib 96150 tadan 99382 taga yetgan va uning asosiy qismini voyaga yetmaganlar tashkil etgan. Maktab yoshidagi bolalarda turmushdagi jarohatlanishlar ko‘p hollarda uy sharoitida, mahalla yoki maktab atrofida sodir bo‘ladi. Bugungi kunda bolalardagi turli xil jarohatlanishlar (kuyish, kesilish, yiqilish, uy-ro‘zg‘or asboblaridan zararlanish va boshqalar) ning ko‘p uchrashi aholi salomatligi uchun muhim gigiyenik va ijtimoiy ahamiyatga ega. Kichik maktab yoshidagi bolalarning qiziqqonligi va harakatchanligi yuqori bo‘lgani uchun xavfli vaziyatlarga ko‘proq duch kelishadi. O‘rta va katta yoshdagi maktab o‘quvchilari esa uy sharoitida maishiy jihozlar va maishiy texnikadan noto‘g‘ri foydalanishi natijasida turlicha jarohat olishlari mumkin. Ayniqsa maktab o‘quvchilarining jarohatlanishidan yuzaga keladigan asoratlari bolalarda fiziologik rivojlanishni sekinlashtirishi, o‘quv jarayoni samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va asab tizimi shuningdek, immuniteti to‘liq rivojlanmaganligi sababli asoratlar kattalarga nisbatan og‘ir kechishiga olib keladi.

Bolalarda turmushdagi jarohatlanishni oldini olish nafaqat shifokorlar, balki oila, maktab va jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etib, ushbu jarohatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarurligini bildiradi. Jarohatlanishni oldini olish uchun dastlab jarohatlanish turlari va sabablarini tahlil qilish, ularning asoratlarini tibbiy-gigiyenik jihatdan o‘rganish, oilaviy muhitning ta’sirini baholash lozim. Shuni alohida ta’kidlash joizki, bolalar orasida sodir bo‘ladigan turmushdagi jarohatlanishlarning hammasi ham davolash-profilaktika muassasalarida qayd etilavermaydi (ayniqsa turmush sharoitida olingan mayda jarohatlarda) buning sababi ota-onalar tomonidan o‘z vaqtida murojaat qilinmasligi bilan ifodalaniladi.

Bolalarda turmushdagi jarohatlanishlarni kamaytirish uchun ota-onalarning sanitariya-gigiyena bilimlarini oshirish, maktablarda xavfsizlik bo‘yicha ta’limiy dasturlarni joriy etish va mahalla darajasida profilaktik choralar tashkil etish muhim ahamiyatga ega.